

“LOGOPEDIK TEKSHIRUVDA AN’ANAVIY YONDASHUV”

*Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Logopediya yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Ibragimova Durdona Dilmurod qizi

*Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Azimova Dilnoza Sherzodvna*

Annotatsiya: Ushbu ishda logopedik tekshiruv jarayoni va uning bolalar nutqiy rivojlanishini baholashdagi ahamiyati yoritilgan. Kuzatuvlar orqali bolalarning nutqiy ko‘nikmalari, tovush talaffuzi, grammatik tuzilma, lug‘at boyligi, eshitish va ko‘rish qobiliyatlari hamda psixik holati haqida to‘liq ma’lumot olish mumkinligi aniqlandi. Ayniqsa, erta yoshda tekshiruvni boshlash korreksion ishlarning samaradorligini oshirishi kuzatildi. Shuningdek, ota-onalarning faol ishtiroki bolaning nutqiy rivojlanishida muhim rol o‘ynashi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: logopedik tekshiruv, nutqiy rivojlanish, nutq nuqsonlari, kuzatuv, korreksiya, maktabgacha yosh, bola nutqi, diagnostika, logoped, ota-ona hamkorligi.

Аннотация: В данной работе освещен процесс логопедического обследования и его значение в оценке речевого развития детей. Установлено, что посредством наблюдения можно получить полную информацию о речевых навыках детей, произношении звуков, грамматической структуре, словарном запасе, слуховых и зрительных способностях, а также их психическом состоянии. В частности, было отмечено, что начало обследования в раннем возрасте повышает эффективность коррекционной работы. Также подчеркивается, что активное участие родителей играет важную роль в речевом развитии ребенка.

Ключевые слова: логопедическое обследование, речевое развитие, дефекты речи, наблюдение, коррекция, дошкольный возраст, детская речь, диагностика, логопед, сотрудничество с родителями.

Abstract: This paper highlights the process of speech therapy assessment (logopedic examination) and its significance in evaluating children's speech development. It was determined that through observation, comprehensive information can be obtained about children's speech skills, sound pronunciation, grammatical structure, vocabulary, auditory and visual abilities, and their mental state. In particular, it was observed that initiating the assessment at an early age increases the effectiveness of correctional work. Furthermore, the active participation of parents is emphasized as playing a crucial role in the child's speech development.

Keywords: speech therapy assessment (logopedic examination), speech development, speech disorders (defects), observation, correction, preschool age, child speech, diagnostics, speech therapist (logopedist), parent-collaboration.

Kirish:

Logopedik tekshiruv — bu bolaning nutq holatini tekshirish, nuqsonlarini aniqlash va unga yordam berish jarayonidir.

Turli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda logopedik tekshiruv juda muhim hisoblanadi.

Chunki bolaning nutqida qanday muammo borligini bilmasdan turib, to'g'ri mashg'ulot olib borish qiyin bo'ladi.

Tekshiruv odatda bir nechta bosqichlarda o'tkaziladi.

Birinchii bosqichda logoped bola haqida umumiy ma'lumot to'playdi.

Bu bosqich "mo'ljallash bosqichi" deyiladi.

Logoped ota-onadan bola qachon tug'ilganini, qanday rivojlangani, kasalliklari bo'lganmi yoki yo'qmi, oilada qanday sharoitda ulg'ayayotganini so'rab bilib oladi.

Agar kerak bo'lsa, logoped tibbiy kartani ham ko'radi. Bu ma'lumotlar bolaning nutqida muammo qayerdan kelib chiqqanini tushunishga yordam beradi.

Keyingi bosqichda logoped bolaning nutqini tekshiradi.

Bu bosqich "farqlash bosqichi" deyiladi.

Nutq buzilishi turli sabablar bilan bo'lishi mumkin — eshitish muammosi, ko'rishdagi nuqson, til apparatidagi holatlar yoki psixik rivojlanishdagi orqada qolish.

Shuning uchun logoped bolaning ko'rish va eshitish qobiliyatiga ham e'tibor beradi.

Shundan keyin logoped bola bilan bevosita suhbat qiladi.

Bola bilan gaplashib, turli savollar beradi, rasmga qarab hikoya aytishni yoki she'r aytishni so'raydi.

Shunda bola tovushlarni qanday talaffuz qilayotgani, gaplarni qanday tuzayotgani aniqlanadi.

Masalan, bola "r" tovushini ayta olmasa yoki "mushuk yuguryapti" o'rniga "mushuk yugur" desa, bu grammatik xatolik yoki talaffuzdagi nuqsonni bildiradi.

Logoped tekshiruvda oddiy usullardan foydalanadi: suhbatlashish, kuzatish, artikulyatsion mashqlar, tovush sinovlari.

Ba'zan bola o'yin orqali ham tekshiriladi, chunki bola o'yin vaqtida o'zini erkin tutadi va logoped uning tabiiy nutqini eshitadi.

Tekshiruv tugagach, logoped bolaning nutqidagi muammo turini aniq qiladi. Masalan, duduqlanish, tovush talaffuzidagi nuqson, umumiy nutqning orqada qolishi

yoki boshqa buzilishlar bo'lishi mumkin. Shunga qarab maxsus mashg'ulotlar rejalashtiriladi.

Turli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar bilan korreksion rivojlantiruvchi ishlar tashkil etiladi.

Korreksion rivojlantiruvchi ishlarda psixolog, logoped, tarbiyachi, nevrpotolog, psixonevrolog kabi mutaxassislar bilan olib boriladi.

Tajribadan ma'lumki, turli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalardagi kamchiliklarni bartaraf etishda ularning yosh xususiyatlari inobatga olgan holda takshkil etiladi.

Ayniqsa bolani bog'cha yoshida erta korreksion rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, bu bolani hayotga erta moslashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota onalarga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'llaniladigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma'naviy va intellektual jihatdan maktabda o'qishga tayyorlashni nazarda tutatadi.

Quyidagilar ixtisoslashtirilgan tashkilotlarining vazifalar hisoblanadi: maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari hamda ular asosida ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya va sog'lomlashtirish ishlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarning ta'lim tarbiya olishlarini va korreksion pedagogik ishni ta'minlash;

Korreksion ta'lim tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, individual tarzda tashkil etish;

Bolaning ijtimoiy xissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlari shakllanishi uchun zarur korreksion -rivojlantiruvchi ta'lim tarbiya muhitini yaratish;

Bolaning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun zaruriy korreksion pedagogik ishni tashkillashtirish;

Bolalarni ijtimoiy hayotga va maktab ta'limiga sifatli tayyorlash.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan 3-7 yoshdagi bolalarning quyidagi toifalari qabul qilinadi:

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar; (alaliya, bolalar afaziyasi, rinolaliya, dizartriya, duduqlanish nutq nuqsoniga egabo'lgan bolalar)

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, (1-4 guruh karlik va zaif eshituvchi bolalar)

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar, (ko'zi ojizlar, zaif ko'ruvchi bolalar)

Psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar; (psixik rivojlanishning orqada olishi, psixik nutqiy rivojlanshining orqada qolishi, bolalar autizmi)

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar:(aqliy rivojlanishida orqada qolishning yengil darajasi, aqliy rivojlanishida orqada qolishning o'rta darajasi)

Tayanch harakatlanish a'zolarida nuqsonlari bo'lgan bolalar (ortopedik jarohatlarning asoratlari, idiopatik o'zgarishlar(bo'yin, ko'krak umurtqa).

Turli rivojlanshida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan tashkil etiladigan logopedik ishlarda logopedik tekshiruvning ahamiyati juda kattadir.

Logopedik tekshiruvda bolaning barcha nutq komponentlari va nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari o'rganiladi.

Logopedik tekshiruv ishlarining samarali natijasi asosanmaxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'proq ko'zga tashlanadi.

Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati maxsus dastur asosida ishlab, dastur 4 ta o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, o'quv yili boshidan 2 hafta davomida olib borilgan tekshiruvdan so'ng tanlab olinadi.

Bolalarning har tomonlama dastur materiallarini qay darajada o'zlashtirishlarini tekshirish uchun yilning oxirida vaqt ajratiladi.

O'qish kuni 2 sentabrdan 31 maygacha davom etadi. 1 iyundan 31 avgustga qadar yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi.

Mo'ljal olish bosqichi:

Ushbu bosqichda bolaning anamnezi ota ma'lumotlari o'rganiladi.

Logoped onalardan bola haqida to'liq ma'lumotni suhbat, anketa, so'rovnoma orqali olishi mumkin.

Ota onadan xomiladorlikdan oldingi davr, xomiladorlik davri, xomiladorlikdan keyingi davrlar o'rganiladi.

Shuningdek, ota-onaning palapar-

tish hayot tarzi (ichish, chekish) ham inobatga olinadi.

Tug'ruqdan so'ng bolaning rivojlanish holati, ilk salbiy o'zgarishlar bo'yicha ham suhbat o'tkaziladi.

Bola haqidagi to'liq ma'lumotni yig'ishda ko'pincha tibbiyot kartasi katta yordam beradi.

Ko'p hollarda ota onalar birdaniga logopedning savollariga to'liq javob bera olmadilar, shuning uchun ham logoped savollarni anketa yoki so'rovnoma qog'oz tarzida uyda to'ldirishni so'rash mumkin bo'ladi.

Bunda ota onalar uy sharoitida shoshilmagan holda kerakli ma'lumotlarni esga tushurish orqali anketa yoki so'rovnomani to'ldirib beradilar.

Logoped albatta tibbiyot kartasini o'rganganda asosiy tibbiyot mutaxasislarning qaydlarini o'rganadi: bolalar shifokori, nevrapotolog, otorinolarolog, jarroh, ko'z shifokori va boshqalar.

Suhbat maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi (3 va 7 yoshdagi), bunda logoped bolalar bilan suhbat orqali muloqatga kirishadi, shundan so'ng birlamchi nutq nuqsonlari aniqlanadi.

Farqlash bosqichi:

Ma'lumki, nutqning rivojlanishida bir qancha omillarga bog'liq holda rivojlanadi bular:

1. Kognitiv jarayonlarning rivojlanishi.
2. Nutq harakat jarayonining saqlanib qolishi.
3. Ko'ruv va eshituv jarayonining saqlanib qolishi.

Xulosa:

O'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, logopedik tekshiruv bolaning nutqiy rivojlanishini to'g'ri baholashda juda muhim ahamiyatga ega. Bolalar bilan olib borilgan tekshiruv jarayonida ularning nutqidagi tovush talaffuzi, grammatik tuzilma, lug'at boyligi, eshitish va ko'rish qobiliyatlari, shuningdek psixik holati haqida to'liq ma'lumot olish mumkin bo'ldi.

Kuzatuvlar davomida ayrim bolalarda nutqiy nuqsonlar erta bosqichda aniqlansa, ayrimlarida esa ularni faqat maxsus suhbat va mashqlar orqali ko'rish mumkinligi aniqlandi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda logopedik tekshiruvni erta boshlash korreksion ishlarning samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning ishtiroki va logoped bilan hamkorligi bolaning nutqiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Bola haqida to'plangan tibbiy va psixologik ma'lumotlar tekshiruvni aniq va to'g'ri olib borishga yordam beradi. Umuman olganda, logopedik tekshiruv nafaqat nuqsonni aniqlash, balki bola uchun individual rivojlantiruvchi dastur tuzish va uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tumanova T.A. Logopediya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Muxamedova M.M. Nutqiy rivojlanish va logopedik tekshiruv. Toshkent, 2020.
3. Umarova S.I. Logopedik diagnostika va korreksiya. Toshkent: Fan, 2019.
4. Luriya A.R. Rivojlanishda nutq va psixologik jarayonlar. Moskva, 2017.
5. Vygotskiy L.S. Psixologiya va nutq. Moskva: Pedagogika, 2015.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi me'yoriy hujjatlari va metodik qo'llanmalari.
7. Respublika logopediya markazi uslubiy tavsiyalari, 2021.
8. Smirnova E.O. Korreksion pedagogika va logopediya. Moskva, 2016.